



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

XORAZM ADABIY MUHITIDA OGHIY IJODINING O'RGANILISHI (ERKIN SAMANDAR ASARI)

Otayeva Mahliyo Xursandbek qizi

*Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
(mahliyoatayeva@gmail.com)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning badiiy-estetik merosi zamonaviy o'zbek adabiyotidagi badiiy talqinlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, Erkin Samandarning Ogahiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan asarlarida tarixiy shaxs obrazining yaratilish tamoyillari, ma'rifatparvarlik g'oyalari, vatanparvarlik ruhining badiiy ifodasi hamda Ogahiy shaxsiyatining Xorazm adabiy muhitidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy hamda germenevtik metodlardan foydalanilib, Erkin Samandar asarlarida Ogahiy siymosining badiiy talqini tarixiy manbalar bilan qiyoslanadi. Shuningdek, adibning tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi muvozanatni saqlash mahorati, Ogahiy ijodining milliy ma'naviy qadriyatlarini targ'ib etishdagi o'rni hamda Xorazm adabiy muhitining uzviy rivojlanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Ogahiy merosining zamonaviy badiiy interpretatsiyasini chuqurroq anglashga, Xorazm adabiy muhitining taraqqiyot bosqichlarini ilmiy asosda baholashga hamda tarixiy-biografik asarlarning adabiyotshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm adabiy muhiti, Ogahiy, Erkin Samandar, tarixiy roman, badiiy talqin, tarixiy shaxs, ma'rifatparvarlik, adabiy meros, tarixiy haqiqat, milliy qadriyatlar.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ОГАХИ В КОНТЕКСТЕ ХОРЕЗМСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЭРКИНА САМАНДАРА)

Аннотация. В данной статье анализируется художественно-эстетическое наследие Мухаммада Ризы Эрнийезбек-угли Агахи — выдающегося деятеля хорезмской литературной среды — сквозь призму современных узбекских литературоведческих интерпретаций. В частности, с научно-теоретической точки зрения рассматриваются принципы изображения этой исторической личности, темы просветительства и патриотизма, а также значение Агахи для хорезмской литературной среды, как они представлены в произведениях Эркина Самандара. С применением историко-типологического, сравнительно-аналитического и герменевтического методов в исследовании сопоставляется художественный образ Агахи в произведениях Самандара с историческими источниками. Кроме того, в статье подчеркивается мастерство автора в соблюдении баланса между исторической правдой и художественным вымыслом, а также роль творчества Агахи в популяризации национальных духовных ценностей и его значимость для

непрерывного развития хорезмской литературной среды. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию современной художественной интерпретации наследия Агахи, научно обоснованной оценке этапов развития хорезмской литературной среды и уточнению теоретической и практической значимости историко-биографических произведений в литературоведении.

Ключевые слов: Хорезмская литературная среда, Агахи, Эркин Самандар, исторический роман, художественная интерпретация, историческая личность, просветительство, литературное наследие, историческая правда, национальные ценности.

THE STUDY OF OGAPIY'S WORK WITHIN THE KHOREZM LITERARY ENVIRONMENT (USING THE WORK OF ERKIN SAMANDAR AS AN EXAMPLE)

Abstract. This article analyzes the artistic and aesthetic legacy of Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogapiy—a prominent figure of the Khorezm literary milieu—through the lens of modern Uzbek literary interpretations. Specifically, it examines—from a scholarly and theoretical perspective—the principles behind the portrayal of this historical figure, the themes of enlightenment and patriotism, and Ogapiy's significance within the Khorezm literary environment, as presented in the works of Erkin Samandar. Employing historical-typological, comparative-analytical, and hermeneutic methods, the study compares the artistic portrayal of Ogapiy in Samandar's works with historical sources. Furthermore, the article highlights the author's skill in balancing historical truth with artistic fiction, as well as the role of Ogapiy's work in promoting national spiritual values and its importance to the continuous development of the Khorezm literary milieu. The findings of this research contribute to a deeper understanding of the modern artistic interpretation of Ogapiy's legacy, a scientifically grounded assessment of the developmental stages of the Khorezm literary milieu, and a clarification of the theoretical and practical significance of historical-biographical works within literary studies.

Key words: Khorezm literary environment, Ogapiy, Erkin Samandar, historical novel, artistic interpretation, historical figure, enlightenment, literary heritage, historical truth, national values.

KIRISH

XIX asr Xorazm adabiy muhiti o'zbek mumtoz adabiyotining yuksak taraqqiyot bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yashab ijod qilgan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogapiy nafaqat iste'dodli shoir, balki tarixchi, tarjimon va ma'rifatparvar sifatida ham milliy madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning tarixiy asarlari, she'riy merosi va tarjimalari Xorazm adabiy maktabining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Shu bois Ogapiy merosi bugungi kunda ham adabiyotshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda. Mustaqillik

yillarida milliy tarix va adabiy merosni yangicha ilmiy yondashuv asosida o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada Ogahiy shaxsiyati va ijodi ham zamonaviy badiiy adabiyotda yangi talqinlarga ega bo'ldi. Xususan, yozuvchi Erkin Samandarning "Quyun yuzlari yoxud Ogahiy" romanida Ogahiy obrazi tarixiy manbalar hamda badiiy tasavvur uyg'unligida gavdalantiriladi. Asarda adibning hayot yo'li, ma'rifatparvarlik faoliyati, davr ijtimoiy-siyosiy muhiti va ijodiy izlanishlari badiiy-estetik mezonlar asosida yoritilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolaning maqsadi Ogahiy ijodining Xorazm adabiy muhitidagi o'rnini Erkin Samandarning "Quyun yuzlari yoxud Ogahiy" romani misolida tahlil qilish, tarixiy haqiqat va badiiy talqin o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlash hamda yozuvchining Ogahiy siymosini yaratishdagi badiiy mahoratini ilmiy asosda baholashdan iborat.

XIX asr Xorazm adabiy muhiti o'zbek mumtoz adabiyotining sermahsul va o'ziga xos taraqqiyot bosqichlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur muhitda badiiy ijod bilan bir qatorda tarixnavislik, tarjimachilik, tazkiranavislik va ilmiy-ma'rifiy faoliyat ham izchil rivojlangan. Ayniqsa, Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy faoliyati Xorazm adabiy muhitining mazmun va ko'lam jihatidan yuksalishida alohida ahamiyat kasb etadi. Munis ijodini Ogahiy faoliyatidan ajratib o'rganish mumkin emas. Chunki Ogahiy shakllangan adabiy-ilmiy muhitning muhim omillaridan biri Munisning ijodiy merosi va tarixnavislik tajribasi bo'lgan. Munis nafaqat shoir, balki tarixchi va tarjimon sifatida ham Xorazm madaniy hayotida muhim iz qoldirgan. Uning "Firdavs ul-iqbol" asarini yaratishga kirishishi Xorazm tarixnavisligida muhim hodisa bo'ldi. Munis tomonidan boshlangan ushbu asarning keyinchalik Ogahiy tomonidan davom ettirilishi ikki ijodkor o'rtasidagi ijodiy vorislikning yorqin namunasidir [7;2]. "Firdavs ul-iqbol"ning yaratilish tarixi Munis va Ogahiy ijodiy aloqasining mohiyatini anglash uchun alohida ahamiyatga ega. Munis asarni Xiva xoni Eltuzarxon topshirig'i bilan yozishni boshlagan va tarixiy voqealarni 1813-yilgacha bayon qilgan. Uning vafotidan

so'ng asarni davom ettirish vazifasi Ogahiy zimmasiga tushadi. Ogahiy Munis boshlab bergan tarixnavislik an'anasini davom ettirib, asarning keyingi qismini yaratadi [7;3]. Menimcha, mazkur holatni oddiygina bir tarixiy asarning davom ettirilishi sifatida baholash masalaning mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Bu jarayonda ustoz va shogird, avlod va avlod, ijodkor va ijodkor o'rtasidagi ma'naviy hamda ilmiy vorislik namoyon bo'ladi. Munis Ogahiy uchun faqat qarindosh yoki ijodiy muhit vakili emas, balki uning tarixga, adabiyotga va ilmga munosabatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan muhim shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Ogahiy ijodining ildizlarini Xorazm adabiy muhitidan, xususan, Munis boshlab bergan ijodiy an'anadan izlash maqsadga muvofiqdir. Ogahiy esa mazkur an'anani shunchaki davom ettirib qolmay, uni yangi bosqichga olib chiqdi. U tarixnavislik sohasida "Riyoziy davlat", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniyy", "Gulshani davlat", "Shohidi iqbol" kabi asarlarni yaratib, Xiva xonligi tarixining turli davrlarini yozma manbalarda aks ettirdi. Shu bilan birga, uning "Ta'viz ul-oshiqin" devoni, tarjima faoliyati va boshqa asarlari Ogahiy ijodkorlik ko'lamining nihoyatda keng bo'lganini ko'rsatadi [7;2]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Ogahiy siymosi Xorazm adabiy muhitida birgina shoir yoki tarixchi maqomi bilan chegaralanmaydi. U adabiyot, tarix, tarjima va ma'rifatni birlashtirgan qobiliyatli shoir desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning faoliyati Xorazm adabiy muhitining ichki imkoniyatlarini kengaytirib, keyingi avlod ijodkorlari uchun ham muhim ma'naviy zamin yaratdi. Ogahiyning tarixiy asarlarida voqelikni qayd etish bilan bir qatorda, davr kishilarining xarakteri, ijtimoiy hayoti, siyosiy jarayonlari va ma'naviy qarashlarini yoritishga intilish ham kuchli. Ayniqsa, Ogahiy ijodining tarixnavislik va badiiylilik chegarasida namoyon bo'lishi uning Xorazm adabiy muhitidagi mavqeini yanada oshiradi. U tarixiy voqealarni shunchaki sanab o'tuvchi tarixchi emas, balki ularni muayyan badiiy-estetik qarashlar asosida ifodalovchi ijodkor sifatida ko'zga tashlanadi. Shu sababli uning tarixiy asarlari tarix faniga oid manba bo'lish bilan birga, o'zbek nasri va tarixiy-badiiy tafakkurining taraqqiyotini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Nazarimda, Xorazm adabiy muhitining taraqqiyotini Munis va Ogahiy ijodining davomiyligisiz tasavvur qilish qiyin. Munis ushbu muhitda muhim ijodiy va ilmiy poydevor yaratgan bo'lsa, Ogahiy ana shu poydevor ustida o'zining ulkan ijodiy merosini shakllantirdi va uni yangi mazmun bilan boyitdi. Shuning uchun Ogahiyning Xorazm adabiy muhitidagi o'rnini belgilashda uni faqat o'z davrining mashhur shoiri sifatida emas, balki Munis boshlab bergan an'anani rivojlantirgan, tarixnavislik va tarjimachilikni yuksaltirgan, mumtoz adabiy muhitni yangi bosqichga olib chiqqan ijodkor sifatida baholash lozim. Aynan shu jihat Erkin Samandar ijodida Ogahiy obraziga murojaat qilishning ilmiy-estetik ahamiyatini ham belgilaydi. Yozuvchi Ogahiy shaxsiyatini tasvirlash orqali bir inson taqdirinigina emas, balki butun bir davrning ma'naviy-adabiy qiyofasini qayta gavdalantirish imkoniga ega bo'ladi. Demak, Erkin Samandarning Ogahiy obraziga murojaati Xorazm adabiy muhitining tarixiy ildizlari, Munis va Ogahiy o'rtasidagi ijodiy vorislik hamda Ogahiy merosining keyingi davr adabiyotidagi davomiyligini tadqiq etish uchun muhim badiiy material vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA

Erkin Samandarning yangi tarixiy romanida Rossiya bosqinining kelib chiqish sabablari, unga qarshi ma'rifatni qurol qilgan Xorazm ziyolilarining kechmishi bayon qilinadi. Roman markazida Muhammad Rizo Ogahiy hayotining so'nggi kunlari turishi barobarida ulug' shoir va mutafakkirning asarlari, maslahat va o'gitlari xalqimiz uchun qimmatli ma'naviy manbaa ekaniga amin bo'lamiz[1;4].

Ushbu "Quyun izlari yoxud Ogahiy" romanining bunday nomlanishiga sabab nima ekanligi, albatta, kitobxonning e'tiborini tortadi. Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu asarda Ogahiy hayoti boshidan oxirigacha hikoya qilinmaydi, balki ko'proq shoir umrining so'nggi yillarini o'z ichiga oladi. Asar sarlavhasidagi "quyun" so'zi Ogahiy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy bo'ronlari va hayot sinovlarining ramzidir; "izlari" esa ushbu sinov va bo'ronlarning, avvalo, Ogahiy, qolaversa, shu davrda yashagan oddiy xalqning

hayotida qoldirgan ilari deyish mumkin. Bundan tashqari, romanda Ogahiy xarakterining ochilishida uning davlat va jamiyat hayotidagi masalalarga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi qahramonni faqatgina iste'dodli shoir yoki tarixchi sifatida emas, balki ijtimoiy muammolarga teran fikr bilan yondasha oladigan, vaziyatni tahlil qilish va murosali yechim topishga intiladigan ziyoli sifatida gavdalantiradi. Buni Feruzxon huzuridagi vaziyat tasviri orqali ham yaqqol kuzatish mumkin. "Fikri ojizimcha, muammoni ikki bosqichga bo'lgan holda ko'rib chiqilsa, foydali holi bo'lmas. Birinchi bosqich amir Muzaffar ila Abdumalik to'g'ra o'rtalarida paydo bo'lmish anglashilmovchiliklarni yo'qotishga ko'maklashishdan iborat bo'lmog'i kerak..."[1;9]. Ushbu parchada Ogahiy xarakterining eng muhim jihatlaridan biri — vazminlik va mulohazakorlik namoyon bo'ladi. U hukmdor huzurida o'z fikrini shoshma-shosharlik bilan bildirmaydi. Avval vaziyatni kuzatadi, so'z aytish uchun munosib fursatni kutadi va shundan keyingina o'z qarashini bayon etadi. "Fikri ojizimcha" deya boshlashi ham uning odob-axloq me'yorlariga rioya qiluvchi, mansab va mavqega hurmat bilan yondashuvchi, ayni paytda o'z fikridan voz kechmaydigan shaxs ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda Ogahiy taklif qilayotgan yechimning o'zi ham uning siyosiy va ijtimoiy tafakkurini namoyon etadi. U muammoni bir tomonlama hal qilish emas, balki avvalo "anglashilmovchiliklarni yo'qotish", keyinchalik esa "birgalikda sa'y-harakat" qilish zarurligini ilgari suradi. Demak, yozuvchi Ogahiy obrazida nizoni kuchaytiruvchi emas, aksincha, murosaga chorlovchi, muammoning ildizini anglashga intiluvchi ziyoli qiyofasini yaratadi. Parchaning keyingi qismida "Mavlono Ogahiy nafaqat buyuk shoir, balki yakto arbob hamdir"[1;9], degan bahoning berilishi ham bejiz emas. Bu jumla qahramon xarakterining muhim qirrasini — uning ijodkorlik bilan bir qatorda davlat va jamiyat masalalarini chuqur anglaydigan arbob ekanini ochib beradi. Shunday qilib, Erkin Samandar Ogahiy obrazini faqat tarixiy shaxsning biografik qiyofasi sifatida emas, balki o'z davrining muammolariga munosabat bildira oladigan, fikr va mas'uliyat sohibi bo'lgan murakkab xarakter sifatida tasvirlaydi. Ogahiy xarakterining siyosiy-ijtimoiy

tafakkur orqali ochilishi Avvalgi epizodda Ogahiyning muammoga bosiqlik bilan yondashib, uning yechimini bosqichma-bosqich izlashga intilishi ko'zga tashlangan bo'lsa, romanning keyingi lavhalarida uning siyosiy vaziyatni nozik ilg'aydigan, voqealar rivojini oldindan chamalay oladigan ziyoli sifatidagi qiyofasi yanada yorqinlashadi. Muallif bu xususiyatni qahramonning ichki mushohadalari orqali ochib beradi. Jumladan, asarda: "Mavloni Ogahiyga, tabiiyki, chetdan xabar kelmas, shunday bo'lsa-da, u ... orqali uzoq-yaqin voqealarni sezib-bilib o'tirardi" [1;12]. Ushbu tasvir Ogahiyning voqealardan bexabar, chetdan kuzatuvchi shaxs emasligini ko'rsatadi. Aksincha, u atrofida sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni ichki sezgi, hayotiy tajriba va teran tafakkur orqali anglashga harakat qiladi. Yozuvchi shu jihat orqali Ogahiyning o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotidan uzilib qolmagan, xalq va davlat taqdiriga daxldorlikni chuqur his qiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu o'rinda qahramonning fikrlash tarziga e'tibor qaratish muhim. Ogahiy vaziyatni baholashda faqat mavjud kuchga tayanmaydi. U: "Lekin kuch qancha bisyor bo'lmasin, hamisha ham zafar va nusratga olib kelavermas", deya mulohaza yuritadi [1;12]. Mazkur fikr Ogahiy xarakteridagi hayotiy tajriba va teran falsafiy mushohadani namoyon etadi. Uning nazarida g'alaba faqat son yoki qurol-yarog'ning ko'pligi bilan belgilanmaydi. Demak, qahramon voqealarga yuzaki emas, balki ularning ichki mohiyatini anglashga intilib munosabat bildiradi. Bu esa Ogahiyning shoirona tafakkuri bilan siyosiy kuzatuvchanligi bir nuqtada tutashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, "zafar taqdiri hamisha mardlar va qahramonlar qo'lida bo'lgan" degan qarash uning inson omiliga bo'lgan ishonchini ifodalaydi [1;13]. Bu fikr orqali Ogahiy xarakterining yana bir jihati — jasorat, mardlik va iroda kabi ma'naviy qadriyatlarga yuksak baho berishi namoyon bo'ladi. Yozuvchi qahramonning fikrlarini oddiy siyosiy mulohaza darajasida qoldirmay, uni ma'naviy mezonlar bilan bog'laydi. Shuningdek, Ogahiyning: "Abdumalik to'raga yordam bermoq va uni yovi ustiga yo'llamoq darkor", degan xulosaga kelishi uning faqat kuzatuvchi va mulohaza yurituvchi emas, balki zarur paytda amaliy yechim izlaydigan

shaxs ekanini ham ko'rsatadi[1;13]. U voqealarni kuzatibgina qolmay, mavjud vaziyatdan chiqish yo'lini ham izlaydi. Shu jihatdan Ogahiy obrazi romanda tafakkur va amaliy mas'uliyat uyg'unlashgan xarakter sifatida shakllanadi. Menimcha, mazkur parchalar Ogahiy xarakterini ochishda ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki yozuvchi uni birgina "buyuk shoir" sifatida tasvirlash bilan cheklanmaydi. Uning siyosiy ziyrakligi, vaziyatni chuqur tahlil qilishi, inson omiliga ishonishi, mardlik va jasoratni qadrlashi hamda muammoga amaliy yechim izlashga intilishi orqali tarixiy shaxsning ko'p qirrali xarakterini yaratadi. Shu ma'noda romandagi Ogahiy obrazi ijodkor shaxs bilan birga xalq va yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bog'lab anglaydigan ma'rifatli ziyoli sifatida namoyon bo'ladi. Romanning badiiy qimmatini belgilovchi muhim jihatlardan biri unda tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning o'zaro uyg'unlashganidir. Erkin Samandar tarixiy voqealarni shunchaki qayta bayon etish bilan cheklanmay, XIX asr Xorazm va Buxoro muhitiga mansub real shaxslarni badiiy syujet tarkibiga olib kiradi. Asarda Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Rahimxon II – Feruz, Abdumalik to'ra, Amir Muzaffar, Muhammad Sharif qozikalon, Shomurod inoq singari tarixiy shaxslar bilan bir qatorda yozuvchining badiiy tasavvuri asosida yaratilgan yoki tarixiyligi aniq tasdiqlanmagan personajlar ham ishtirok etadi[1;92]. Romanning markaziy qahramoni Ogahiy tarixiy shaxs sifatida asarning real tarixiy asosini ta'minlaydi. Yozuvchi uning hayotining so'nggi davrini tasvirlash orqali tarixiy shaxsning hayot yo'lini badiiy qayta yaratadi. Muhammad Rahimxon II (Feruz) ham tarixiy shaxs bo'lib, roman voqealarida hukmdor sifatida qatnashadi. Abdumalik to'ra va Amir Muzaffar obrazlari esa Buxoro amirligi bilan bog'liq real tarixiy voqealarni Xiva siyosiy muhiti bilan tutashtiruvchi obrazlar sifatida namoyon bo'ladi[1;17]. Shu bilan birga, romandagi Muhammad Sharif qozikalon, Shomurod inoq kabi obrazlar tarixiy mansab va shaxslar bilan bog'liq bo'lsa-da, ularning asardagi qiyofasi tarixiy manbalardagi ma'lumotlarning aynan nusxasi emas. Yozuvchi tarixiy shaxsga badiiy vazifa yuklaydi, uning xarakteri, suhbatlari, munosabatlari va voqealardagi ishtirokini o'zining ijodiy konsepsiyasi asosida

shakllantiradi. Shu sababli tarixiy shaxsning tarixdagi qiyofasi bilan romandagi badiiy qiyofasini aynanlashtirib yubormaslik lozim. Gulandom singari obrazlar esa roman badiiy olamini to'ldirib, tarixiy voqealarning insoniy va hissiy qatlamini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday personajlar orqali yozuvchi tarixiy jarayonni faqat hukmdorlar, amaldorlar yoki siyosiy voqealar doirasida emas, balki inson taqdiri va kechinmalari bilan bog'liq holda ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, asardagi Sori sardor, Chaqqonboy qovunchi, Jaqay bangi, Cho'tir qul, Shum qul, Eshim daroz kabi personajlar ham tarixiy muhitni jonlantiruvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Roman materiallaridan Xorazm va Xiva tarixiga oid turistik-ma'rifiy tarqatma materiallar tayyorlashda, shuningdek, Feruzxon davrining ijtimoiy-adabiy muhitini yoritishda Ogahiyning mirob va shoir sifatidagi faoliyati, asardagi badiiy parchalar hamda shevaga xos birliklar talqinidan samarali foydalanish mumkinligi uning amaliy-ma'rifiy ahamiyatini ham belgilaydi[2;12].

Xorazm adabiy muhitida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy ma'rifatparvar shoir, mohir tarjimon va yetuk tarixchi sifatida alohida o'rin egallaydi. Erkin Samandarning "Quyuni yuzlari yoxud Ogahiy" romani tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif tarixiy haqiqat va badiiy to'qima muvozanatini saqlagan holda Ogahiy shaxsiyatini yangicha va teran burchakdan yoritishga erishgan. Asarda adib obrazi shunchaki biogarafik ma'lumotlar bilan cheklanib qolmay, davlat va jamiyat taqdiriga daxldor, murakkab ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarda bosiqlik, jasorat hamda mantiqiy mushohada bilan oqilona yechim izlaydigan ma'rifatli arbob sifatida gavdalantiriladi. Ogahiyning Munis Xorazmiy an'alarini davom ettirib, tarixnavislik va tarjimachilik sohasini yangi bosqichga olib chiqqani Xorazm adabiy va madaniy muhitining rivojida tub burilish yasagan. Mazkur tadqiqot natijalari va ilmiy-nazariy qarashlar XIX asr adabiy jarayonini hamda zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida tarixiy-biografik

romanlar poetikasi va interpretatsiyasini yanada chuqurroq o'rganishda muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samandar E. Quyun izlari yoxud Ogahiy: tarixiy roman. — Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. — 252b.
2. Samandarova N.E. Istiqlol davri o'zbek tarixiy romanlarida shoir va mutafakkirlarning yangicha tahlili: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Urganch, 2022.
3. Samandarova N. Tarixiy shaxs va tarix haqiqati ifodasida an'anaviy motivlar talqini // O'zbekiston: til va madaniyat. — 2023. — №3(3). — B. 85–95.
4. Samandarova N.E. Adabiy qahramon xarakterining ekstremal vaziyat-holatlarda ochilishi. — 2022. — B.92–95.
5. Buronova X.T., Jozilov J.O. Erkin Samandarning "Quyun izlari yoxud Ogahiy" romanida qo'llangan antroponimlarning tarkibiy tasnifi // Zamonaviy fan, yangi yondashuvlar va yosh olimlarning aktual tadqiqotlari.
6. Tosheva N.Sh. Erkin Samandarning "Quyun izlari yoxud Ogahiy" romanida xalq og'zaki ijodining qahramon xarakterini ochishdagi roli // International Conference on Modern Development of Pedagogy and Linguistics. — 2025. — Vol. 02, Issue 11.
7. <https://share.google/ztpvp30nQZrDzWGZI> Adib hayoti va ijodi | Ogahiy – Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874)